

## BUDRACHTEPA YODGORLIGI MODDIY MADANIYATI

Karimova Sayyora Nuriyevna

*“Termiz” davlat muzey-qo‘riqxonasi Tasviriy  
san’at bo‘limi boshlig‘i*

**Annotatsiya:** Surxondaryo viloyati Denov tumanining qulay geografik joylashuvi, tarixi, moddiy va madaniy merosi, muzeylari, hunarmandchiligi, mehnat salohiyati, turizm obyektlari bilan o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘lgan hudud hisoblanadi. Mustaqillik yillarida Denov tumanini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi daromadlari va turmush darajasini izchil oshirish borasida qator ishlar amalga oshirildi. Ana shunday manzillardan biri Budrachtepa yodgorligi bo‘lib, sayyohlarni jalb etayotgan vohadagi harbiy - tarixiy obidalarining kelib chiqish sabablari, uni yuzaga keltirgan ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy voqeliklar alohida ahamiyatga egadir. Vohadagi harbiy - tarixiy obidalarining ning shakllanishida geografik muhit alohida ahamiyatga ega. Surxon vohasining o‘ziga xos qadimiy, tarixiy obidalarini qadimshunos olimlar tomonidan mukammal o‘rganilib, muqaddas harbiy - tarixiy obidalarining hududi, geografik joylashuvi, arxitekturasi, me’morchiligini ilmiy o‘rganish masalasida bir qator natijalarga erishildi. O‘zbekiston tarixini moddiy va ma’naviy jihatdan o‘rganish tarixshunoslik fanining dolzarb masalalaridan biri bo‘lish bilan birgalikda o‘tmish tarixiga adolatli, haqqoniy munosabatda bo‘lish muhim ahamiyatga ega.

**Kalit so‘zlar:** Surxondaryo, Chag‘oniyon, “Dex-i-nav”, Oqmozortepa va Dunyotepa, Zahartepa, Afrosiyob.

San’atshunoslik ilmiy tadqiqot instituti O‘zbekiston San’atshunoslik ekspeditsiyasi bo‘linmasi 1970-yillar oxirlaridan boshlab o‘rta asrlarda Surxondaryoning o‘rta va yuqori oqimlarida joylashgan Chag‘oniyon viloyatining markazi bo‘lmish Budrach shahristoni vayronlarida arxeologik qazishmalar olib bordi. Budrach shahristonida olib borilgan bu ishlarga akademik E.V.Retveladze umumiy rahbarlik qilib kelardi.

1987-yil martida shahristonning shimoli-sharqiy qismida, Dunyotepadan 180 metrlik shimolda, shudgorlangan dalada bir qancha bronza ashyolar topildi. Bu buyumlar topilgan joyda 15x15 metr kenglikda va 1 metrcha chuqurlikda (BSHR - 1) qazishma ishlari olib borildi. 1970 yil boshlarida yer haydash va tekislash vaqtida aftidan mazkur joydagi o‘rta asr qurilishi tekislab tashlanib, ulardan faqat pishiq g‘isht bo‘laklarigina saqlanib qolgan.

Arxeologik qazishmalar davrida qisman qadimiy hovli joyga to‘g‘ri kelgan, chunki qazishmaning janubiy qismida bir-biridan 1-2 metr masofada joylashgan to‘rtta badrif o‘rni aniqlandi va shu yerdagi birinchisi va eng kattasidan, yerning haydalgan qismiga tutash joydan bronza buyumlar topildi. Bronza buyumlar tagida butun va siniq pishiq g‘isht qatlami mavjud. Uning tagida bir metr qalinlikda parranda, ushoq mol va qoramol suyaklari chirindisi, shuningdek sirlangan va sirlanmagan sopollardan iborat qatlam

topildi. Sopol topilmalar: konus shaklidagi butun sopollar; pishirilmagan va sirlanmagan, qorni sholg'om shaklida ingichka bo'g'izli ko'za (qorin qismida arabcha yozuv bitilgan); oq rangda sirlanib, jigarrang va qizil rangda naqshlar tushirilgan laganlar, ichki qismiga o'simlik tasviri (oq sirli taglikda yashil rang bilan chizilgan) tushirilgan lagan; sariq loydan yasali, qalin oq naqsh chizilgan antiqa piyola, uning ichki tubida ko'k rang bilan yirik harflarda bir qator arabcha yozuv bitilgan. Bu qatlamda bronza buyumlar ham topildi: tumshug'i sinib tushgan surmadon; tagi kesib ishlangan kichkinagina dumaloq qo'ng'iroqcha. Bu yerdan topilgan bronza buyumlarning umumiy miqdori hali to'la aniqlanganicha yo'q, chunki ular orasida butunlari ham, siniqlari ham bor.

Topilma tarkibida 30 ga yaqin hovoncha (o'g'ir) bo'lib, ularni bir necha turga bo'lish mumkin: hoshiyasiz g'o'lasimon (silindrsimon) shakddagi hovonchalar — bo'yi 13,3 sm, yuqori aylana ko'ndalang diametri 13,3 sm, past qismi diametri 14 sm; pastdan yuqoriga qarab kengayib boradigan, pastki tubi bo'rtiq hoshiyali g'o'lasimon hovonchalar 22 ta - ularning kattaligi 14x14x18 sm dan 20x20x24 sm gacha, g'o'lasimon qadli, tubi chetlari aylana bo'rtiq naqshli hovonchalar — o'lchami 13,3x15, 2x16,2 sm dan 15,3x17, 2x18 sm gacha. Bir dona hovoncha yuqoridagilarga o'xshashroq: g'o'lasimon, tubi bo'rtiq hoshiyali, yuqorisidan tekis kesilgan gultojli; o'lchami 13,5x15x17 sm.

Beshta butun va yettita siniq kelisop mavjud. Butun kelisoplar ning uzunligi har xil edi - 21; 23,3; 28; 33,5 sm.

Dafina tarkibida turli xildagi ko'zalar bor. Bu o'rinda biz sakkiz qirrali, tana qismi bo'g'ziga tomon ingichkalashgan, og'zi keskin kengaytirib ishlangan ko'za alohida ahamiyatga ega. Naqshlar bilan bezatilgan bu ko'zaning saqlanib qolgan qismi balandligi 12 sm, gultoj, bo'ylab chetlari kengligi 5 sm. Kichkinagina, noksimon, og'iz qismi nisbatan keng, tub qismi saqlanmagan ko'zacha. Gavdasining past qismida jimjimali to'lqinsimon bo'rtma naqsh ishlangan; saqlanib qolgan qismi balandligi 10 sm, og'izchasining diametri 6,5 sm, gavdasining eng yo'g'on qismi diametri 8 s. Konussimon bo'g'izli ko'za, saklanib qolgan yuqori qismida naqshla — oybaldoqli manzara, qabariq naqshlar mavjud. Tashqi qismida o'simlik shakli tushirilgan yarim dumaloq bezakli to'rtta piyola topildi; ulardan biri to'rsimon, aftidan, suzg'ich sifatida foydalanilgan bo'lsa kerak. Gulkosa qismlari diametri- 7, 10,3; 11; 13,3 sm dan, ularning bo'ylari - 2,2; 3,2; 4; 4,3 sm dan. Beshta doirasimon taglik parchalari mavjud. Juda ko'p miqdor; chiroqdon bo'laklari, jumladan, 30 ta turli kattalikdagi va har xil shakldagi uch qo'ygichli chiroqdon bo'laklari - ba'zilarida qushlarni tasvirlari ma'lum uslubda bo'rttirib tushirilgan; 15 tasi panjarasimon, burama, ko'pqirrali qilib ishlangan; 10 dona g'o'lasimon, bural zanjirsimon, panjarali; uchlari g'altaksimon chiroqdon ham mavjud. Tanasining balandligi 18,8 sm, diametri 5 sm, g'altak balandligi 6 va 7 sm. dan. Chiroqdon tagliklariga ulangan likopchalar siniqlari o'n dona. Jami 11 dona bo'rtma silliq halqatutqich (dasta) topildi.

Dafina tarkibida yuzlab qozon bo'laklari mavjud. Bu qozonlardan biri tuvak shaklida bo'lib, ikkita trapetsiya shaklidagi qulog'i bor. Qozonlarning asosiy qismi — yarim doira shaklidagi qismi aylana hamda uchta konussimon uch tayanch oyoqda joylashgan.

Quloqlari tik o'rnatilgan besh qirrali, uchi qayrilgan; bunday qozon quloqlaridan 40 dan ortiq topildi.

Bundan tashqari, ikkita qo'ng'iroqcha, dastasiz "qoshiq" va "qirg'ich "manqal" (birida arabcha yozuv bor), doirasimon ilgichlar topildi. Ayniqsa, qubbasimon qo'ng'iroq juda antiqa, uning balandligi 15 sm, og'zining diametri 8,5 sm, tanasining eng yo'g'on joyi diametri 11,5 sm, tutqichining bo'yi 6 sm. Yana kichik-kichik to'qachalar, kam uchliklari, xo'roz shaklida burama dastalar, mushuksimonlar oilasi mansub yirtqich shaklidagi chilimdon bo'lagi va boshqa ashyolar mavjud. Shubhasiz, topilmalar orasida butun va o'sha qadimda singan va ta'mirlangan narsalar ham bor; bularning ko'pi badraf maxsus yashirilgan. Uni zargarchilangar usta yashirgan. Zotan ustaxonadagi tayyor buyumlar, ta'mir uchun keltirilgan narsalar, shuningdek, eritishga saqlangan turli-tuman bronza bo'laklari shundan dalolat beradi. Qandaydir vaziyat (ehtimol, yov bosqini yoki shahar ichidagi g'alayon) bu buyumlarni badrafga yashirishga majbur etgandir.

Badrafdan chiqqan X - XI asrlarga oid sopollar, shuningdek, undagi mis tangani E.V.Rtveladze XI asr 1-yarmiga doir deganidan, ushbu dafina taxminan XI asrga oid ekanligi aniqlandi.

Topilgan bronza buyumlar orasida uchta silliq ko'za e'tiborga molik. birinchi ko'zani yuqorigi yarmi saqlangan. Bo'yni sakkiz qirrali. Og'iz qismi kengroq, jo'mrakli qopqoq o'rnatish uchun baldoq ham qilingan, dastasi alohida topildi. Bezaklari: bo'yin qismida yoysimon do'g'alar, o'rta qismida gorizantal doira, unga oybaldoqli halqalar ishlangan, qabariq, jo'mrak ostida oybaldoqli va bargakli halqa tushirilgan. Ko'zaning saqlangan qismining bo'yi 17 sm, bo'g'zi 3,2 sm, og'iz qismining balandligi 3 sm, kengaygan qismi diametri 3,6 sm, tor qismlarida — 2 sm.dan 2,7 sm ni tashkil etadi.

Ikkinchi ko'zani yuqori yarmidan bir qismi saqlangan, qopqoqchasi qubbali, uchi piramida shaklida tutqich baldoqqa bronza tasmacha bilan ulangan. Jo'mragi birinchi ko'zaga karaganda ko'proq egilgan. Bo'yni sakkiz qirrali. Bezagi: bo'ynining pastki qismida do'g'achalar o'rtasida gorizantal oy baldoq naqshli doira va bargakli halqa ishlangan. Jo'mrakdan o'ng tomonda arabcha kufiy xat uslubida yozuv bitilgan — unda "ayn", "mim", "ha", "mim" va "dol" harflarini o'qish mumkin (ehtimol, yozuv "Ahmad amali" — "Ahmadning ishi" deganini bildirsa kerak). Saqlanib qolgan qismining balandligi 20sm, bo'g'zi balandligi 4,3 sm, og'iz qismining balandligi 3,3 sm va eng keng joyi diametri 5 sm, toraygan bo'g'iz qismining diametri 2,7 — 3,7 sm, tanasining yuqori tomoni diametri 6,5 sm.

Uchinchi ko'zani yuqori qismi bo'g'zi bilan birga saqlangan. Bo'g'zining yuqori qismida 2 sm kenglikda bronza halqa ishlangan. Bo'yni sakkiz qirrali. Bezagi: bo'ynining pastki qismida do'g'achalar, tanasining o'rta qismida oybaldoqli bo'rtma naqshli o'rama belbog'. Parchaning saqlangan qismi bo'yi 2 sm ga yaqin, bo'g'zining balandligi 4 sm, diametri pastdan 3 sm, tananing yuqorigi qismi diametri 4,7 smdan iborat.

Shu paytgacha xuddi shunday turdagi to'qqizta ko'za ma'lum edi: Axsikentda, Ustrushanada (Qal'ai Qahqaha III va Childuxtaron), Qirg'izistondagi Qorako'l qo'rg'onida, Vaxsh vodiysidagi Lag'mon shahristoni o'rnida, Ermitaj majmuasida va uchtasi F.R.Martinning kolleksiyasida. To'rtta ko'zada arabcha yozuvda "Usta Ahmad

amali", deb yozilgan. Hanuzgacha bu idishlarning ishlangan joyi aniqlanmagan va bu boradagi xulosalar ham turlichadir.

Arxeologlar topgan ko'zalarning yuqorida keltirilgan tavsifi, ma'lum darajada ularning ishlab chiqarilgan joyini aniqlash imkonini beradi. Uning hududiy qamrovi faqatgina Movarounnahrning shimoli-sharqiy tumanlari bilan chegaralanmay, balki Shimoliy Toxaristonda ham bo'lgan, degan xulosaga olib keladi.

Budrach shahri xarobasida mis oksidi izi bo'lmagan tigellar (o'tga chidamli gil qozonlar) hamda bronzaning ko'mir qotishmali toshqol (shlak)lari topildi. Demak, mazkur joyda mis (bronza) quyilgan. Topilgan ashyolarning turli- tumanligi, ulardan ko'plari, yuqorida qayd etilganidek, o'sha qadimdayoq siniq bo'lib, ular qandaydir ta'mirlash yoki bo'lmasa qayta eritish uchun yig'ilganligi ham bu fikrimizni tasdiqlaydi. Hovonchalar esa bir ustaxonada ko'p mahsulot ishlab chiqarilganini anglatadi. Shunday qilib, Chagoniyonning o'zida maxsus bronza buyumlar ishlab chiqarishning mavjud bo'lganligi, mazkur ko'zalar shu joyda ishlangan, degan fikrga asos bo'ladi. Nihoyat, hanuzgacha O'rta Osiyoda, mazkur ko'zalardan boshqa, usta Ahmad nomi bitilgan birona ham bronza buyum topilmagan.

1986-yil arxeologik tadqiqotlarda bir hovoncha topilib, bu hovoncha 1972- yil yer tekislash vaqtida topilgan, hovonchaga o'xshash hovoncha g'olasimon shaklda bo'lib, og'zi ham, tubi ham sirti tomonga qayrilgan. Aylanasiga unga uchta quloq tutqich halqa uchun ishlangan: odam yuzining teskari tasviri bo'rtma naqsh tarzida qo'yilgan. Hoshiyaning yuqori tekis joyiga arabcha kufiy yozuvda "Usta Ahmad amali" so'zlari bitilgan (E.V.Retveladze o'qigan). Badrafdan topilgan buyumlar orasida tog'ora (yoki qozon) bo'lagi ham topildi. Unda arabcha kufiy yozuvida lavha o'yib bitilgan bo'lib, "ayn", "mim" va "lom" ning yuqori qismi, shuningdek "alif", "ha" va "mim" harflari saqlanib qolgan, buni esa xuddi shunday "Ahmad amali" tarzida o'qish mumkin. Shu tariqa, endilikda Budrach shahristonidan topilgan o'rta asrlarga oid uchta bronza idishda "Usta Ahmad amali" degan yozuv mavjud. Bu o'z navbatida idishlar Chag'oniyonda tayyorlangan, degan farazni haqiqatga yaqinlashtiradi.

Budrachning arxeologik tarixiy manbalari. O'rta asrda Sharqning ko'pchilik hukmdorlari o'z nomlarini abadiylashtirish maqsadida shoirlar, mashshoqlar, olimlarga homiylik qilganlar. X asr ikkinchi yarmi—XI asrda Chag'oniyon hukmdorlari o'z saroylarida Sharqning eng buyuk shoirlarini to'plab shuhrat qozonganlar. Chag'oniyon viloyatining markazi Chag'oniyon shahri o'sha vaqtda O'rta Osiyoning muhim madaniyat markazlaridan biriga aylanib qolgan edi.

Budda rohibi Syuan Szyanning yozishicha, VII asr boshlarida Chag'oniyon poytaxti aylanasi 10 li (5 kilometr ga yaqin) maydonni egallab, unda uncha katta bo'lmagan beshta sangaram (budda ibodatxonasi), kam sonli rohib bo'lgan.

Chag'oniyon shahri haqida arab-fors yozma manbalarida ancha ma'lumot berilgan, lekin afsuski, ular yetarli darajada batafsil emas. Chag'oniyon milodning X—XI asrlarida O'rta Osiyoning eng yirik shaharlaridan biri hisoblangan, aholisining soni va boyligi jihatidan Termizdan keyin tursada, biroq maydoni jihatdan undan katta edi. Shaharda chiroyli timlar (yopiq bozorlar) va pishiq g'ishtdan qurilgan masjid qad ko'tarib turgan.

Har bir hovlidan ariq o'tkazilgan. Aholisi e'tiqodliligi va mehmondo'stligi bilan ajralib turgan.

Chag'oniyon o'zining otlari, jun matodan to'qilgan kiyimlari, gilamlari va bo'yog'i bilan dong taratgan edi. Shahar atrofidgi yerlar to'kin sug'orilishi tufayli qalin daraxtzor bo'lgan va u yerlarda qishda qush ovlangan. X asrda Chag'oniyon O'rta Osiyoning taraqqiy etgan madaniy markazlaridan biri bo'lib, muhim siyosiy mavqega ega edi. Uning hukmdorlari Muhtojidlar sulolasidan bo'lgan Abu Bakr Muhammad ibi Muzaffar va Abu Ali Ahmad ibn Muhammad (Abu Ali Chag'oniy) Somoniylar davlatida juda muhim harbiy va ma'muriy vazifalarni egallashgan. Ayniqsa, Abu Ali Chag'oniy o'zining jang-u jadal jasoratlari bilan nom qozongan bo'lib, ko'pgina arab va fors tarixchilari uning sha'niga maqtovlar bitgan edilar.

XIX asrdayoq bir qancha chet el va rus olimlari shaharning o'rnini aniqlashga harakat qilib ko'rdilar. Ammo o'sha vaqtlarda Sharqiy Buxoroga (Buxoro xonligining sharqiy qismiga) kirib kelish nihoyatda mashaqqatli edi. Shuning uchun ham qidiruv ishlari, asosan, o'rta asrlarda arab tilida yozilgan sayyohatnomalar va jug'rofiy xaritalar ma'lumotlarini solishtirish asosidagina olib borilardi. Ba'zi olimlar Chag'oniyonni Sariosiyo qishlog'i o'rnida, ko'pchilik olimlar esa Denov shahri o'rnida joylashgan, deb taxmin qiladilar. Bunda ular, xususan, Mahmud ibn Valining: "Uning (ya'ni Chag'oniyon viloyatining) katta joylaridan biri Dehi-Nav bo'lib, qadimda uni Chag'oniyon deb ataganlar va bu shahar uning birinchi poytaxti edi", - degan ma'lumotlariga tayanganlar.

Budrach shahri xarobasining o'rnini Denov shahridan 6 km Yo'ldosh Oxunboboyev nomli shirkat xo'jaligida, Zahartepa I yaqinidadir. U Qizilsuvning Surxondaryoga quyilishi joyidagi o'ng qirg'og'i bo'ylab joylashgan. Shahriston yer yuzasiga nisbatan Surxon daryosiga tomon nishabroq. Shahariston o'rnining umumiy maydoni 6 kvadrat kilometr, balki undan ham ko'proqdir, chunki shahar juda yomon saqlanganligidan uning chegarasini aniqlash nihoyat mushkul edi. Shahristonning katta qismi haydalib ekinzorga aylagan, bir qismida qishloq aholisi uylar qurgan.

Shahar o'rnining janubi-sharqiy qismida, Qizilsuvning chop sohilida yarmini daryo yuvib ketgan, yon bag'irlari tik, sog' tuproqdan tashkil topgan baland tepalik — Oqmozortepa joylashgan. Undan shimoliy tomonda 100 metrlar chamasi masofada, chuqur xandaq bilan ajratilgan yana bir tepalik — Dunyotepa bor. Bu tepalik 200x100 metr maydonni egallagan, balandligi 8-12 metr, yon bag'irlari yassi, janubiy qismi Qizilsuv tomon nisbatan nishab bo'lib ketgan. Dunyo shimolda 2 km masofada sog' tuproqli do'nglik — Zahartepa joylashgan. Bu do'nglik shaharning chekkasi bo'lib, bu maydon paxta dalasiga aylantirilgan, bu yerlarda hozirgacha sopol va g'isht bo'laklari, tangalar, (shlak)lar, oyna parchalarini topish mumkin.

Mahalliy aholi orasida Zahartepa bilan bog'liq qachonlardir joyda yashagan ajdaho va ilonlar haqida afsona saqlanib qolgan. Arxitektor Z.A.Arshavskaya Vaxshivor qishlog'ida yozib olgan afsonada hikoya qilinishicha, ko'p yillar muqaddam Olloyor ismli bir zolim hukmdor yashagan ekan. Hatto uning yaqinlari ham undan qo'rqib yashiringanlar, uning ovozini eshitganda beshikdagi go'daklar ham jim bo'lib qolarkan. Bir kuni Olloyor homilador xotinning undan qo'rqib bola tashlab qo'yganligining guvohi

bo'lib, o'ylanib qoladi va qanday bo'lmasin xalq oldida o'z gunohlarini yuvishga qaror qiladi. U boyliklaridan voz kechib, Boysuntog'dagi zaharli ilonlar va ajdaholar makon bo'lmish Vahshimor (ilonlar makon)ga yo'l oladi. Olloyor Vahshimorga kelib taqvoda hayot kechira boshlaydi. U joylarga suv chiqarib, qishloqdan ilonlarni quvib yuboradi. Ilonlar bu yerni tark etgach, qishloqni Vaxshivor deb atay boshlaydilar.

Ilonlar va ajdodolar galasi Bobotoqqa o'tib ketayotib, qadimi shahar yonidagi tepalikka kelib to'xtaydi. O'sha paytdan boshlab u yerda o'sadigan o't-o'lanlar mollar uchun go'yoki zaharli bo'lib qolgan emish va joyga mahalliy aholi Zahartepa deb nom qo'yganmish.

1970-yillar oxirida arxeologlar E.V.Rtveladze va M.Isxoqovlardan iborat ekspeditsiya bo'linmasi Budrach shahri xarobasida arxeologik tadqiqot olib bordi. Shu joydagi maktabning tarix o'qituvchisi O.Xo'janov ishlarni yo'lga qo'yish hamda arxeologik ashyolarni to'plashda juda katta yordam ko'rsatdi.

Shahar xarobasidagi qazuv-qidiruv ishlari hajmi hali unchalik keng ko'lamda bo'lmasa-da, biroq, uning tarixiy bosqichlarini tadqiq etish imkoniyati yuzaga kelgan edi. Bu esa Baqtriya-Toxariston shaharlarining qadimgi va o'rta asr davridagi taraqqiyoti qonuniyatlarini aniqlash uchun nihoyatda muhimdir, chunki bu shaharlardan ko'plari o'rta asrlargacha saqlanmagan va IV — V asrlarga kelib yo'q bo'lib ketgan Budrach shahri esa bundan istisno, juda yaxshi saqlanib qolgan.

Aftidan, miloddan oldingi birinchi va milodning I asrlarida yerda turar joy barpo bo'lgan va butun Kushon podshohligi davomida taraqqiy etib borib, ma'lum darajada yirik shaharga aylangan. Shahar xom g'isht va paxsadan qalinligi 10 metrga yetadigan devor bilan o'ralgan yirik qal'a — Oqmozortepa (1,5 gektar) va aholi yashash joyi Duniyotepa (2,5 gektar)dan iborat bo'lib, aylanasi mustahkam istehkom devori bilan o'ralgan edi. Ularning oralig'ida o'ralmagan shahar atrofi, bir muncha nariroqda esa, qishloqlar joylashgan. Shaharning umumiy maydoni, tevarak-atrofidagi qishloqlarni hisoblamaganda, 20 gektardan ortiqroq joyni tashkil etgan. Kushonlar davridayoq Budrach shahri Qizilsuv — Sangardakdaryo va Surxondaryo oralig'idagi uchburchak hududning bosh markazi bo'lgan. Uning ustivor mavqeyi ilk o'rta (V — VIII) asrlarda ham saqlanib qoladi. Kushonlar davrida shahar atrofidagi turar joylar zichlashib ketgan bo'lsa ham, Oqmozortepa oldingidek shaharning qal'asi bo'lib qolgan.

Ilk o'rta asr davrining turli-tuman topilmalari va qatlamlari keng maydon bo'ylab qayd etilgani o'sha vaqtdayoq shahriston tashkil topgani va u katta joyni egallaganidan dalolat beradi. Shahriston devor bilan o'ralganga o'xshaydi. Uning atrofida qishloqlar, dehqon qo'rg'onlari, budda sig'inish markazi (Kuloltepa, Kultepa, Chag'anoqtepa, Chordingak) joylashgan edi. Bu vaqtda Chag'oniyon mulk markazlar - Termiz va Xuttaldan ikki baravar kichik bo'lsada, lekin Toxariston qamrovidagi boshqa mulklar (Qubodiyon, Hamoravon, Shumon) bilan baravarlashardi.

Shaharning qadimda va ilk o'rta asrda barpo etilgan ko'pgina qismlari rivojlangan o'rta asrda ham mavjud mavqeyini saqlab qolgan. Jumladan, shaharning istehkom qismi — Oqmozortepa va Duniyotepa.



Shunday qilib, Budrach shahri o'rnida ilk qadimgi davrdagi shahar bilan nisbatan keyingi davrdagi shahar orasida uzviy bog'lanish mavjud, deyish mumkin, bu esa muhim tarixiy ahamiyatga ega. Biroq, rivojlangan o'rta asrda shaharning alohida qismlari (ark, shahriston rabot) yanada aniqroq, mukammalroq shakllanib ulguradi, ularning ichki tuzilishi va mazmuni ancha o'zgaradi.

O'rta Osiyoning ko'pgina o'rta asr shaharlari kabi, Chag'oniyon-Budrach ham uch asosiy qismdan, ark (qal'a), shahriston (shaharning aholi yashaydigan qismi) va rabot (shahar atrofi)dan iborat bo'lgan. Keng maydondagi shahriston 51 gektarni egallagan, uning atrofi devor bilan, shuningdek, chuqur va keng xandaq bilan o'ralgan, shaharning chegarasini ana shu devor va xandaq qoldiqlariga qarabgina aniqlash mumkin bo'ldi.

Shahristonning janubi-sharqiy burchagida mustahkam qal'a (Oqmozortepa) joylashgan bo'lib, uning Kushonlar davrida qurilgan devorlari shunchalik baquvvat bo'lganki, o'rta asrda uni bir oz tiklagan xolos. Hozir do'nglikning balandligi 17,5 metrga yetadi. Qal'aning gurg'abr-yashnagan davrida uning qanchalik mustahkam bo'lganligi shundan ham ma'lum. Rivojlangan o'rta asrda Duniyotepada saroy ma'muriy majmuasi—mahalliy hukmronlar — Mujohiylar sulolasidan bo'lgan amirlar qarorgohi joylashgan. Duniyotepaning hozircha ozroq qismi qazib-tekshirib ko'rilgan bo'lishiga qaramay, bu qazilmalarning o'ziyiq ajoyib natijalar berdi. Qarorgoh o'rtasida katta hovuz bo'lib, uning atrofida pishiq g'ishtdan qurilgan me'morchilik inshootlari qad ko'tarib turgan. Bir necha imoratlar ichidan ko'k, sariq va qizil rangdagi naqshinkor va bitikli suvoqlarning qulab tushgan katta-katta bo'laklari topildi. Budrach shahristonining ayrim qismlarida hunarmand (kulollar, temirchilar, shishadamgarlar, chilangarlar, zargarlar) mahallalari o'rin olgan edi. O'rtaroqda chiroyli masjid bo'lgan va bu masjid haqida o'rta asr arab geograflari yozib qoldirganlar.

Rabot keng maydonni — 4 kvadrat kilometr joyni egallagan. U g'arb tomondan Zahartepaga tutashgan va u yerda ham binolar bo'lgan, janubda Qizilsuvning o'ng sohilidan bir qismini egallagan. Shaharning rabot qismida daryoning chap sohili bilan o'ng sohilini tutashtiruvchi XV asrda pishiq g'ishtdan qurilgan ko'prikning asos (tag) qismi hozirgi vaqtgacha saqlanib qolgan, bu joyda oldin ham bunday inshootlar bo'lgan. Qizilsuvning tik qirg'og'ida pog'onador shakldagi g'alati bir inshoot qoldig'i topildi. Bu daryoda suvning ko'tarilishi va tushishini o'lchab turadigan maxsus qurilma qoldig'i bo'lib, hozirgacha O'rta Osiyoda bunday inshoot boshqa joydan topilmagan.

Rabot ayniqsa X-XI asrlarda shimoli-sharqiy tomonlarga tez sur'at bilan kengayib borgan, ammo bu yerlarda uning chegarasi aniq emas, chunki rabotning katta qismini hozirgi vaqtda qishloq egallagan.

Mo'g'ullar istilosidan so'ng shahristonning deyarli butun hududi tashlandiq holga kelgan. Qal'a esa XV asrda qabristonga aylantirilgan, bu yerda g'ishtdan ishlangan sag'analar barpo etilgan. Ehtimol, shundan keyin qal'a o'rni Oqmozortepa deb atala boshlagan bo'lsa kerak. Ammo shahar hali butunlay yo'q bo'lib ketmagan edi. V.V.Bartoldning fanda keng tarqalgan "Chag'oniyon bu vaqtda butunlay yo'q bo'lib ketgan edi", — degan fikriga qarama-qarshi, shaharning yana qayta qad ko'targanini, ammo yangi joyda, rabot qismida mavjud bo'lganini aniqlandi. Bu joyda qalinligi 4 metr

bo'lgan 1 kvadrat kilometrlik maydonda XIV — XV asrlarga oid qatlam qayd etildi, u yerdan o'sha davr tangalari, jumladan, xazinalar, sopollar, g'ishtlar chiqdi. Topilmalar G'ishtli degan joyda ayniqsa juda ko'p bo'lib, turli xil g'isht parchalari mavjud. XVI asr boshida Chag'oniyonni Shayboniyxon qo'shinlari bosib olgandan keyin shahar butunlay vayronaga aylangan. Viloyat markazi Qizilsuv daryosi bo'ylab 6 kilometr yuqoriga—Dehinav (Yangi Qishloq—hozirgi Denov) o'rniga ko'chadi va bu haqda dastlabki ma'lumotlar XVI asr oxirlariga to'g'ri keladi. XVII asr boshlarida Dehinav mustahkam qo'rg'oni, ajoyib bozori, katta madrasa va xonaqosi bo'lgan yirik shahar bo'lib shakllanadi.

Budrach shahri xarobalarini qazish va u yerdan chiqqan narsalarni to'plash jarayonida bu shaharning milodning dastlabki asrlaridan boshlab so'nggi o'rta asrlargacha kechgan davrdagi moddiy hayoti va madaniyatini aks ettiruvchi turli- tuman ashyolar topildi. Kushonlar davri ashyolari orasida qizdirib pishitilgan sopol haykalchalar e'tiborga molikdir. Ulardan birida tik turgan erkak kishi (haykalchalaning boshi saqlanmagan) tasvirlangan, u kushonlarga xos tizzagacha tushib turgan chakmon kiygan va kitobga o'xshash bir narsani ko'kragiga bosib turibdi. Boshqa haykalchalar ham bor, masalan, yumaloq yuzli va bodomqovoq ayol timsolini aks ettiruvchi haykalcha, boshidagi tojining gardishiga naqshlangan yarim oy ramzi o'rnatilgan, uni oy xudosi deyish mumkin.

Ilk o'rta asr topilmalari orasida VI—VIII asrlarga oid tangalar yaxshi saqlangan. Ulardan tashqari 400 tacha tanga to'plangan xazina topildi. Xazinadan

Sosoniylar podshohlar Feruz (454 — 484) va Xusrav I Anushervon (531—579) kumush tangalari topildi. Ammo xazinaning asosiy qismini Xusrav I tangalariga taqlid qilib ishlangan mahalliy Chag'oniyon tangalari tashkil etadi. Ko'pchilik tangalarda quyma zarblar mavjud, ammo ularda ba'zi farqlar bor: Feruz tangalarida "tamg'a", sug'd va baqtriy yozuvlari, mahalliy hokimning darajasi zarb etilgan. Xusrav I tangalarida esa, mahalliy hokimliklarning darajasi bilan birga ismi ilova qilingan. Bu ismlar baqtriya yotiq yozuvi (kursiv) bo'lishiga qaramay, V.A.Livshis ayrim ismlarni aniqladi. Sashrohidev, Zarinohidev va Hnarohidev.

Bu tangalardan ko'plari hozirgacha fanda ma'lum bo'lmagan va nodir sanaladi. Topilmalar Chag'oniyonning siyosiy tarixi va undagi tovar-pul munosabatlari taraqqiyoti borasida mutlaqo yangi ma'lumotlar beradi.

Budrach shahri xarobalaridan hammasi bo'lib mingga yaqin tangalar aniqlanib, ular shaharda savdo-sotiq rivojlanganligidan dalolat beradi.

Chag'oniyonda mis tangalar zarb eta boshlaganlaridan keyin, uning oldi tomonida hukumdorning ko'krigidan yuqori qismi aks ettirilib, orqa tomonida esa, Chag'oniyon hokimlari sulolasining tamg'asi zarb qilingan. Tangalarda ular anchagina bitiksiz, ya'ni hech qanday yozuv bo'lmagan, lekin ularning ichida juda murakkab qiya baqtriya yozuvi bilan zarb etilgan bitta noyob tanga ham bor edi, uni hozircha o'qish imkoni bo'lmadi. Budrach shahri xarobalari o'rnida va Chag'oniyonning boshqa shunga o'xshash arxeologik yodgorliklaridan chiqqan topilmalar bu viloyatning qadimda Eron, Toxariston, Sug'd, Ustrushana, Xitoy va Sharqning boshqa mamlakatlari bilan muntazam savdo va madaniy aloqalari mavjudligidan dalolat beradi. Shunisi diqqatga sazovorki, bu

yerda to VIII asr, ya'ni arablar istilosi davrigacha baqtriya yozuvi qo'llanilib kelingan. Vaholanki, Toxaristonning boshqa viloyatlarida bu yozuv o'rnini sug'd yozuvi egallagan edi.

Shahar xarobalaridan topilgan rivojlangan o'rta asrlar moddiy va badiiy madaniyatini aks ettiruvchi ashyolar nihoyatda ko'p va turlicha edi. Ulardan yuqori sifatli sir-bo'yoqli, naqshinkor sirlangan sopollarni alohida qayd etmoq lozim bo'ladi. IX — X asrlarda shaffof kulrang sirli va oq taglik ustiga yarim sirli, qora naqsh ishlangan sopol buyumlar keng tarqalgan edi. Undagi bezaklarning o'ziga xosligi — turli naqshlar (o'simlik yoki geometrik shakllar tasviri, shuningdek turli xil arabcha yozuvlar) tushirilganligidir. Ulardan ba'zilarining mazmuni saxovat va bilimni madh etuvchi ezgu istak va hikmatlardan iborat. Ba'zan turli fantastik mavjudotlar — qushlar va hayvonlarga sig'inishni anglatuvchi ramziy tasvirlar ham uchraydi. Sirlangan sopol buyumlar orasida ichki yuzasida yashiltob tublik (fon)da oq kaptar tasvirlangan kosa tubi e'tiborni tortib turadi.

Milodning XI—XII asrlarida chuqur mazmunli lavhalar deyarli yo'q, ular o'rnini epigrafik naqshlar egallaydi. Ayni paytda murakkab geometrik chizmalar va o'simlik tasvirlari ham keng ko'lamda saqlanib qolib, rasmlardagi rang- baranglik ortib boradi. Chag'oniyon kulollari xilma-xil shakllar bilan ajralib turuvchi sirlanmagan sopol buyumlar tayyorlashda ham ustasifarang bo'lishgan. Qolipga solib naqsh tushirilgan xushbo'y yog' solishga mo'ljallangan "simob ko'zacha" deb ataluvchi idishlar ham juda ajoyib. Sopol chiroqlar ijrosi va shakli jihatidan turli-tumandir. Sirlanmaydigan sopol buyumlarga naqsh tushirish uchun yaxshi pishirilgan loydan tayyorlangan qoliplardan foydalanilgan. Ular ko'pincha silindrsimon (g'o'la shaklida) bo'lib, yonboshiga biror-bir rasm solingan. Usta kulol turli xil naqshli qoliplardan foydalanib, idishlarda beqiyos ifodaliligi va mukammalligi bilan ajralib turuvchi san'atni ifodalagan.

Chag'oniyon ustalari metall buyumlar tayyorlashda ham yuksak mahoratga erishganlar. Ular idish dastalariga turli-tuman qush va hayvonlar tasvirini o'yib ishlaganlar. Unga o'simlik rasmlari va geometrik shakllar chizmalarini ilova qilganlar. Yo'lbars boshi ko'rinishidagi bronza chilimning yuqori qismi juda ajoyib ishlangan. Bunday chilimlar dunyoning bir qator muzeylarida bor va ular XI — XII asrlarga oiddir. Topilgan chilim Chag'oniyonning o'zida ishlangan bo'lishi mumkin, chunki bu xildagi chilimlar Xuroson-Iroq ustalari tomonidan yasalgan, deyiladi. Yana bir ajoyib san'at asari — bu qanotlarini keng yoyib turgan burgutning bronzadan ishlangan haykali bo'lib, juda noyob topilmadir. Shaharning o'zida qurol-aslaha ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan bo'lgan. Dunyotepa qazilganda yoy o'qi uchlari, qilich siniqlari, temirdan ishlangan salmoqli cho'qmor — gurzilar topildi.

Shaharda zargarlik hunarmandchiligi ham yaxshi rivojlangan. Zargarlar turli xil toshlardan chiroyli munchoqlar, nafis uzuklar va sirg'alar tayyorlaganlar. Bu joydan zargarlik buyumlari bilan birga, bezaklarning turli qismini quyish uchun mo'ljallangan tosh va metallardan tayyorlangan qoliplar ham topildi.

Mazkur joydan topilgan narsalarning hammasini mufassal sharhlashning iloji yo'q. Biroq, shu qisqa bayonning o'zidan ham Chag'oniyon shahrining moddiy va badiiy

madaniyati yuksak darajada bo'lganligi aniq ko'rinib turibdi. Bu boy madaniyat mahalliy asoslarda qadimgi Baqtriya va Toxariston an'alarida shakllanib, rivojlangan o'rta asr davrida O'rta Osiyo va Sharq madaniyatining ilg'or yutuqlarini o'zida mujassamlashtirgan. Shuning uchun ham Budrach shahri xarobalari, topilgan ko'pgina ashyolar bir tomondan boshqa viloyatlar va shaharlardan topilgan ashyolarga o'xshash bo'lsa, ayrim jihatlari o'ziga xosligi va qadimiyligi bilan ajralib turadi.

**BUDROCHTEPA** - qadimiy shahar xarobalari. Surxondaryo viloyati Denov tumanida joylashgan. Maydoni salkam 120 ga. Unga Zahartepa, Oqmozortepa va Dunyotepa deb nomlangan tepaliklar kiradi. Budrochtepa o'rta asrlarda Chag'onuyon deb atalib, podsho saroyi, shahriston va raboddan iborat bo'lgan. Budrochtepa Afrosiyob devoriy rasmlaridagi so'g'dcha yozuvlarda "Chag'oniyon" arab manbalarida "Sag'oniyon" deb atalgan. Ilk bor 1960-yilda Budrochtepa O'zbekiston san'atshunoslik ekspeditsiyasi tomonidan ochilgan, 1960-yildan beri shu ekspeditsiya ishlaydi. Arxeologik qazishmalardan ma'lum bo'lishicha, Budrochtepa o'z boshidan bir necha tarixiy bosqichlarni kechirgan: 1) mil. av. I asr -mil. I asrlarda Oqmozortepa va Dunyotepa o'rinlarida kichkina qishloq barpo etilgan; 2) mil. I-III asrlarda shahar hajmi 10 ga yetib, Oqmozortepa shoh saroyiga aylantirilib, 10 m. qalinlikdagi mudofaa devori bilan o'ralgan, Dunyotepa esa katta manzilgoh bo'lgan; 3) mil. 3-5 asrlar boshlarida shahar inqirozga yuz tutgan, mudofaa devorlari xarobaga aylangan; 4) V asr oxiri va VIII asr boshlarida shahar yana tiklandi va 3 qismdan: shoh saroyi, shahriston va raboddan tashkil topgan. Shahriston atrofidagi devorning uz. 3 km ga yetgan; 5) VIII-IX asrlarda, arab istilosidan so'ng shahar mavjud bo'lib, uning hajmi bir oz kichik bo'lgan; 6) X-XI asrlar birinchi yarmida shahar taraqqiy etgan. Shaharning umumiy maydoni 6 x m<sup>2</sup> ga yetgan; 7) XI-XII asrlar o'rtalarida shahar saljuqiylar sultoni Alp Arslon tomonidan zabt etilgan. Ashyoviy dalillar shu paytda Dunyotepada hayot to'xtaganligini va shahristonning ham mavqei pasayganligini ko'rsatdi; 8) XII asr o'rtasi - XIII asr boshlarida shahar yana tiklangan; 9) XIII asr boshida shahar mo'g'ul istilochilari tomonidan vayron qilinib XV asr boshlarida esa shahristonda hayot tamomila to'xtagan, Dunyotepada hayot qisman kechgan, Oqmozortepa esa pishiq g'ishtlar bilan tiklangan qabristonga aylantirilgan. Shahar o'zni raboddan sharqda - /ishli degan joyda paydo bo'lgan, u yerda madaniy qatlam 4-5 m ni tashkil qiladi; 10) XVI asr boshlarida Shayboniylar tomonidan shahar batamom vayron qilingan. Chag'oniyon poytaxti endi Budrochtepadan 10 km cha uzoqlikda joylashgan "Dex-i-nav" ga, hozirgi Denovga ko'chgan. Arxeologik tadqiqotlar natijasida har bir davr uchun kerakli ashyoviy dalillar topilgan. Ular orasida sopol idish-tovoqlar, haykalchalar, Kushon podsholarining mis tangalari va so'nggi davrdagi kumush va jez tangalari, toshdan va qimmatbaho ashyolardan tayyorlangan taqinchoqlar, shisha idishlar, temir va jezdan tayyorlangan qurol-aslahalar va uy-ro'zg'or buyumlari ko'plab topilgan.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Tursunov S.N. va boshqalar «Surxondaryo tarix ko‘zgusida» -T., «Sharq», 2001, 382 b.
2. Tursunov S.N. va boshqalar «Surxondaryo tarixi » -T., «Sharq», 2004, 605 b.
3. Tursunov S.N. Surxondaryo viloyati toponimlari. -T., «A.Navoiy O‘zbekiston milliy kutubxonasi», 2008, b.
4. Termiz. Buyuk yo‘llar chorrahasidagi ko‘hna va yangi shahar. (mualliflar jamoasi) -T.: Sharq, 2001, 101 b.

